



UDK: 911.3+930.85

Mahliyo A'ZAMOVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: azamovamahliyo9@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD G.Kattayeva taqrizi asosida

IS THE TERM TURAN FOUND IN CHINESE SOURCES?

Annotation

The term "Turan" is understood in Iranian and Islamic sources as a place of nomadic peoples who opposed the Iranian peoples. In ancient Chinese sources (for example, in the chronicles of the Tang dynasty), the regions of Turan are often referred to by the names of Tujue or other nomadic tribes. The article studies the occurrence of the terms Tur and Turan in "Chinese" sources. We all know how ancient these two terms are. We have also heard many times that this term first appeared in the "Avesta". However, we pay special attention to how and from what period this term appears in Chinese sources. Since we could not read Chinese sources, we used the works of scholars who read and translated the source.

Keywords: Tur, turo, Turan, Hun, Sui Shu, Wei Shi, Tujue, Turk, historical chronicles.

ВСТРЕЧАЕТСЯ ЛИ ТЕРМИН «ТУРАН» В КИТАЙСКИХ ИСТОЧНИКАХ?

Аннотация

В иранских и исламских источниках термин «Туран» понимается как место проживания кочевых народов, противостоявших иранским народам. В древних китайских источниках (например, в хрониках династии Тан) регионы Турана часто упоминаются под названиями племен Туцзюэ или других кочевых племен. В статье исследуется встречаемость терминов «Тур» и «Туран» в «китайских» источниках. Всем известно, насколько древними являются эти два термина. Мы также неоднократно слышали, что этот термин впервые появился в «Авесте». Однако мы уделяем особое внимание тому, как и с какого периода этот термин появляется в китайских источниках. Поскольку мы не имели возможности читать китайские источники, мы использовали работы ученых, которые читали и переводили эти источники.

Ключевые слова: Тур, туро, Туран, Хун, Суй Шу, Вэй Ши, Туцзюэ, Тюрк, исторические хроники.

TURON – ATAMASI XITOIY MANBALARIDA UCHRAYDIMI?

Annotatsiya

“Turon” atamasi Eron va islom manbalarida Eron xalqlariga qarama – qarshi turuvchi ko'chmanchi xalqlar makoni sifatida tushunamiz. Qadimgi Xitoy manbalarida (masalan, Tang sulolasi yilnomalarida) Turon hududlari ko'pincha Tujue yoki boshqa ko'chmanchi qabilalar nomi bilan atalgan. Maqolada Tur va Turon atamalarining “Xitoy” manbalarida uchrashi o'rganiladi. Mazkur ikki atamaning qanchalik qadimiy ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu atamaning dastlab “Avesto” da uchrashini ham ko'p bora eshitganmiz. Ammo bu atamaning xitoy manbalarida qanday xohda va qaysi davrdan uchrashiga alohida e'tibor qaratamiz. Xitoy manbalarini o'qiy olmaganligimiz uchun, manbani o'qib tarjima qilgan olimlarning asarlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Tur, turo, Turon, xun, Sui Shu, Vey Shi, Tujue, turk, tarixiy yilnomalar.

Kirish. Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda qadimgi va o'rta asrlardagi yozma manbalar, ayniqsa, tashqi manbalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Xitoy tarixiy yilnomalari mintaqaning siyosiy, etnik va geografik tarixini yoritishda eng qadimgi va ishonchli yozma manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu manbalarda bugungi O'zbekiston va unga tutash hududlarda yashagan qabilalar, davlatlar hamda ularning geografik makoni turli nomlar ostida tilga olingan. Masalan: Markaziy Osiyo hududimiz va uning xalqi “turo”, “tur”, “dingling”, “tingling”, “tele” kabi turlicha nomlar bilan tilga olinadi. Tarixiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan “Turon” atamasi Xitoy manbalarida aynan shu shaklda uchramaydi. Biroq Xitoy yilnomalarida qayd etilgan “Turklar” (突厥 – Tujue), ularning yashagan hududlari, siyosiy markazlari va g'arbiy o'lkalar haqidagi ma'lumotlar mazmunan keyingi tarixshunoslikda “Turon” deb atalgan makon bilan bevosita bog'liqdir. Xususan, Sui Shu, Beyshi, Zhoushu, Tang Shu kabi Xitoy yilnomalarida Markaziy Osiyo hududi turklar faoliyati bilan bog'langan holda tasvirlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yozma manbalar qatorida xitoy tilida bitilgan manbalar alohida o'rinda turadi. Bularning ilk bitiklari

tosh, suyak va xitoy qamishlariga o'yib yozilgan. Rasm shaklida bitilgan bunday qo'lyozmalar yoki xotiralarga Tangri amri bilan amalga oshirilgan muqaddas bayonnoma deb qaralib, ularni avloddan-avlodga qoldirib saqlash hukmdorlarning burchi hisoblangan. Ularni yo'q qilish esa og'ir jinoyat sifatida qaralgan [1]. Shu sababli, qadimda yozilgan xitoy manbalari hozirgi kunimizgacha saqlanib qolgan.

Xitoyda eng qadimgi yozma yodgorliklarda biri 3-4 ming yil oldingi davrga taaluqli yozuvlar hisoblanadi. Mazkur yozuvlarning eng qadimiylarida xitoyliklar tomonidan O'ndus va uning atrofida istiqomat qilgan turkiy qabilalarga nisbatan ishlatilgan “guy-fang” atamasi o'chraydi [2]. Mazkur ma'lumotdan anglaymizki, turkiy xalqlar tarixi 4-5 mingyillik tarixga ega deyishimiz mumkin.

Mazkur maqolada Xitoy tarixiy manbalarida “Turon” atamasining bevosita shaklda uchramasligi, biroq mazmunan shu tushunchani ifodalagan ma'lumotlar keltirildi. Xitoy manbalarini o'qib tahlil qilgan olimlar N.Y.Bichurin va A.Xo'jayevning asarlaridan foydalanildi.

N.Y.Bichurinning “Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена” asarida

xitoy manbalarining tarjimasini bo'yicha, qabila va geografik nomlar, tarixiy nomlar va maxsus atamalar haqida ma'lumot keltirilgan[3].

O'zbek xitoyshunoslik maktabining asoschisi, taniqli olim A.Xo'jayevning "Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари: Туркистон Хитой ёзма манбаларида. (милoddan oldingi 10 – милodiy 11 юзйилликлар)" nomli asarida Turkiston tarixi, o'zbek xalqi va davlatchiligi masalalariga oid qimmatli ma'lumotlarning o'zbek tilidagi ilmiy tarjimalari keltirilgan. Olim Xitoy manbalariga murojaat qilmasdan turib, umuman Turkistonning, xususan, o'zbek xalqining tarixini to'laqonli yoritib berish qiyinligini ta'kidlagan [4]. Shuningdek, Xitoy yilnomalarining Sui Shu (Turklar(Tujue) haqida maxsus bob mavjud), Veyshi(386-618) ("Turklar tarixi bobidan") kabi qism tarjimalaridan foydalanildi. Mazkur tarjimalarda "Tujue" haqida ma'lumot mavjud [5]. Xitoy yilnomalaridagi turklar (Tujue) haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinib, ularda aks etgan geografik hududlar, etnik nomlar va siyosiy birliklar orqali "Turon" tushunchasining shakllanish jarayoni yoritiladi. Bu esa qadimgi va o'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududining tarixiy nomlanishini aniqlashga hamda Turon atamasining manbashunoslik asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

Turklar ulkan hududni egallagan eng qadimiy xalq. Ular sharqda Koreya yarim orolidan, g'arbda Qora dengiz sohillarigacha bo'lgan yerlar hisoblangan. Yozma manbalarda turk etnonimi milodiy 5 – yuzyillikning ikkinchi choragida paydo bo'lgan deb ta'kidlangan. Ammo bu borada ham turli xil qarashlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchi olimlar qadimgi turklar maydonga kirishi milodiy 6 – yuzyillik deb ta'kidlaydi. O'zbek etnologiyasi Shoniyozov K. "O'zbek xalqining shakllanish jarayoniga bag'ishlangan" asarida "turk etnonimining manbalarda paydo bo'lishi milodiy 445-yilga" to'g'ri keladi[6] deb yozgan[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Turon - atamasi xitoy manbalarida uchraydigan nomli ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tahlili, manbalar tahlili, xronologik tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Turon atamasining eng qadimiy manbalarda uchrashini milodiy III yuzyillikdagi Eron sosoniylar sulolasining shahonshohlari bitiklarida geografik nom sifatida qo'llanilgan [8] ligi haqida ma'lumotlar mavjud. O'sha bitiklarda Turon bilan bir qatorda "Turiston" nomi ham keltirilgan va olimlarimiz buni Turon bilan bir xil ma'noda – "turlar mamlakati" ma'nosida kelishini ta'kidlashgan[9].

Xitoy tadqiqotchilari, "tele" atamasini "turo" deb ham atashgan, bu esa "tur" so'zining ko'plik shakli sifatida qaraladi (10). "Turk" etnonimining Xitoy manbalarida yozilishi esa quyidagicha: miloddan avvalgi II-mingyillikda "tiek(di)", miloddan avvalgi I-mingyillikda "tiauk(turk)", III-V-asrlardan keyin "tieklik(turklik)", VI-asrdan keyin esa "tietkiuat(turk)" shaklida qayd etilgan (11).

Xitoy manbalarida miloddan avvalgi II-mingyillikdan boshlab turklar yashagan hududlarni "g'arbiy yerlar", "dasht hududlari", "Xi-yu" (ya'ni "G'arbiy o'lka") atamasida qo'llab boshlagani uchraydi. Mazkur atama ilk bor xitoy tarixchisi Sima Syan (miloddan avvalgi II asr) tomonidan yozilgan mashhur "Tarixiy xotiralar" ("Shiji") asarida tilga olingan. Asarning 123-bobida xususan, Farg'ona va uning qadimiy xalqi hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud [12]. "G'arbiy o'lka" hududlari va u yerda yashovchi xalqlar haqida muhim ma'lumotlar bayon etilgan. Mashhur manba keyinchalik turli tarixiy va madaniy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan [13]. Mazkur hudud muayyan qabila va siyosiy birliklar nomi bilan ifodalangan bo'lib, bu atamalar keyinchalik islomiy va eroniy tarixiy an'analarda umumlashtirgan. Hamda, "Turon" nomi ostida talqin qilingan. Shu bois Xitoy manbalaridagi

"Tujue" va ular egallagan geografik makonni o'rganish Turon atamasining tarixiy-geografik mazmunini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tarixini va xalqini o'rgangan xitoyshunos olim N.Y Bichurin esa "Tang sulolasining yangi tarixi" nomli tarjimasida, Vey sulolasi tarixida keltirilgan qadimgi turkiy xalqlar, aniqrog'i, telelar haqidagi ma'lumotlarning tarjimasini asl matn bilan solishtirilganda boshi, oxiri va o'rtasi tushib qolganligi aniqlandi. O'sha tushurib qoldirilgan birinchi joylarda – shimolda gaochelar (baland aravaliqlar) tele, deb ataganligi haqida so'z yuritilgan. Ikkinchi qoldirib ketilgan joy xitoyliklar gaochelarni dinglinglar, deb ataganligi haqida so'z yuritilgan. Uchunchi qoldirib ketilgan joy, gaochelarning birinchi hukmdori xun podshosining jiyani ekanligi va ular dastlab 6 qabiladan iborat ekanligi, ularning nomlari yozilgan [14] ligini ta'kidlagan.

Endi asl matnda, gaochelar (turo) 2 guruhga bo'lingan bo'lib, ularning bir qismi 6 ta katta qabiladan, ikkinchi bir qismi 12 ta qabiladan iboratligi aytilgan va ularning nomlari berilgan. N.Y Bichurin tarjimasida gaochelar faqat 12 ta qabiladan iborat, deb yoziladi va bu 12 qabilaning nomi keltiriladi[15]. N.Y.Bichurin tarjimasida "Turklar xonadonining ajdodlari G'arbiy dengizning g'arbida yashaganligini ta'kidlagan[16]. Bu yerda Kaspiy dengizi "G'arbiy dengiz" deb aytilmoqda. Uning g'arbida deganda esa qadimgi xitoyliklar o'zlarini o'ng qo'l, chap qo'l degan iboralarni ishlatib kelishgan. O'ng qo'l kun botish tomon, chap qo'l kun chiqish tomon qilib aytib yurishgan [17].

Mashhur xitoyshunos olim A.Xo'jayevning tarjimalaridan "Tur" (ya'ni "Tujue" – Turklar) haqidagi ilmiy tarjima va tahlildan foydalanamiz. Sui Shu (Suy sulolasi tarixi) manbasining 84 - bobi - "Tujue liezhuan, ya'ni Turklar haqida bibliografiyalari" bo'limida ma'lumotlar qayd etilgan. Bu manba qadimgi xitoy tarixshunosligida Turon va turkiy xalqlar haqida yozilgan eng qadimgi yozma manbalardan biri hisoblanadi.

6 – yuzyillikgacha xitoyliklar tomonidan turkiylarning umumiy nomi bo'lgan turk atamasi 4 xil transkripsiya qilingan [18].

Miloddan oldingi 21 – yuzyillikda paydo bo'lgan tiek, di etnonimi. U kuch – qudrat, ma'nosini bildiradi. Turk atamasi ham shu ma'noni anglatgan. Tiekning yashash joyi Sya qirolligining shimolida va g'arbiy qismida bo'lgan.

Miloddan oldingi 1 – mingyillikda shu zamondagi xitoyliklar tomonidan turk etnonimining transkripsiyasi sifatida tiak, di ieroglifi qo'llanilgan. Bu so'z boshiga pat taqovchi ma'nosini bildirgan. Bu so'zni ishlatgan xitoyliklar shu davrdagi turklarning boshiga chiroyli qush patlarini taqish odatidan kelib chiqqan.

Miloddan oldingi 1 mingyillikning 1 yarmi va milodning dastlabki 2 yuzyillik davomida tyurlik, ya'ni turklar atamasining xitoycha transkripsiyasi sifatida ishlatilgan tieklik, dili atamasidir. Bu atamani muomalaga kiritishda xitoyliklar qudrati, kuchini bildirgan tiauk/di so'ziga o'tmish, tarix ma'nosiga ega bo'lgan li ieroglifini qo'shish asosida shakllantirishgan. Shuning bilan turk etnonimining ma'nosini saqlab qolishgan.

Milodning dastlabki 500 yili davomida Xitoy tarixchilari turklik, ya'ni tyurklar atamasining transkripsiyasi sifatida qo'llanilgan tieklik so'zi. Mazkur atamani muomalaga kiritishda qattiq, temir ma'nosiga ega te ieroglifiga otning boshiga taqiladigan yuganni bildiruvchi liek / le ieroglifini qo'shish asosida shakllantirilgan [19].

Qadimgi Xitoylarning o'zlarini o'ylab chiqargan va turklarga nisbatan ishlatishgan 5 ta etnonimlar uchraydi.

Eng qadimiysi aqli past(turklarni kamsitish ma'nosida qo'llagan) ma'nosini bildiruvchi Xu. Bu so'zni Xan imperiyasi ag'darilgandan so'ng Turkiston aholisiga, jumladan

sug'diliklarga nisbatan ham ishlatgan. L.Gumilyov ushbu so'zni "yovvoyi qabilalar" deb qo'llagan [20].

Rung atamasidir. U otliq jangchi, ot minuvchilar ma'nosini anglatgan. Ushbu atama ilk bor In zamonasida bitilgan yozma yodgorliklarda uchraydi. Keyinchalik xitoyliklar o'zlarining g'arbiy tomondagi turkiy qabilalarni shimoldagilardan ajratish maqsadida ushbu atamaning oldiga g'arbni bildiruvchi shi ieroglifini qo'shib ishlatishni odat qilishdi.

Dingling, tienglieng. U osmon, ruhga sajda qiluvchi ma'nolarni anglatgan. Tieng-lieng(Dingling) so'zlarini ma'nosi "Tura" deb berilgan. Biroq tele etnonimi ham "tura" deb tarjima qilingan [21].

Gaoche dingling so'zi. U baland aravada yuradigan va ruhga sig'inuvchi ma'nosini anglatgan.

Gaoche, u baland arava ma'nosini bildiradi. Bu atama tarkibiga 23 ta turkiy qabila kirgan. Qadimda arava qang deb tarjima qilinganligi uchun ularni qanglilar deb atagan[22].

O'sha vaqtda xalqning nomidan kelib chiqib hudud nomlanganmi? Bu Xitoy manbalarida qay holda yozilgan?

N.Y.Bichurin "turo" qabilasini (baland aravadagilar) nomini "tele" deb atagani haqida ham so'z borgan. G'. Boboyorov turk etnonimining kelib chiqishini turlar ma'nosini anglatuvchi tur nomiga eski turkcha ko'plik qo'shimchasi [+k] qo'shilishi orqali paydo bo'lganligini ta'kidlab keltirib o'tgan. Eronliklar esa, Tur-on [Eron tillarida [-on] ko'plik qo'shimchasi ma'nosini anglatganligini ta'kidlashgan [23].

Xulosa va takliflar. Bundan kelib chiqqan holda, turk degan qabila paydo bo'lgandan so'ng qadimgi Xitoy tarixchilari talaffuzi va ma'nosi bir xil, lekin ko'lami va tarkibi jihatidan farq qiluvchi ikki etnonimga duch kelgan, deb hisoblaymiz. Turk qabila nomini avvalgi umumiy turk nomidan farqlash uchun o'sha davrdagi Xitoy saroy tarixchilari birinchi etnonimni belgilashda yangi ierogliflardan foydalanganlar. Miloddan avvalgi 2 ming yilga yaqin turkiy umumiy nom ostida bo'lgan qabilalar nafaqat son jihatidan ko'paygan, balki sifat jihatidan ham o'zgargan, ularning joylashish geografiyasi kengaygan. Har bir komponentning o'ziga xos nomi bo'lsa-da, umuman olganda turkcha umumiy nomini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR

1. Izzatova A. Xitoy manbalarida O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarning ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. Vol 3. 2022. 631-637 bet. <https://t.me/aresuz>
2. Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. 1-3 жилд. М.Л. 1950 – 1953. И Том. – С.220.
3. Бобоёров Ф. Илк Ўрта аср манбаларида Туркистон атамаси // «Ўзбек халқининг келиб чиқиши: лимий-методологик ёндашувлар, этногенетик ва этник тарих» мавзусидаги Республика илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2004. – Б. 40–42.
4. Гумилев Л. Хунны и Китае. Санкт-Петербург. 1994. С.384.
5. Камолиддин Ш.К вопросу об употреблении географических названий «Мавераннахр» и «Туркестан» // Ўзбекистон тарихи. — 2002. — №4. — Б. 61-68.
6. Хўджаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). Издательство "Таффакур". 2011. – С. 51.
7. Хўжаев А. Ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи манбалари: Туркистон Хитой ёзма манбаларида. (милoddan олдинги 10 – милodий 11 юзийилликлар). – Т.: Фан, 2024. – 25-26, 91-96 б.
8. Хўжаев А., Хўжаев К. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. – Тошкент.: "Маънавият", 2001. – 8-40 б.
9. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни / Тахрир хайъати: - Т.: «Шарк», 2001. - 139 б.